

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIIY YANGILANISH	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIIY YUKSALISH UYG'UNLIGI	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI	86-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025)	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL	141-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOY ADOLATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA'SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> "O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI"	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE"	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB
TALQINLARI..... 211-215

Rustamova Madina
OMMAVIY MANIPULYATSIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING
TRANSFORMATSIYASI..... 221-225

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI 226-232

Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL 233-241

Quvvatova Shaxlo Choriyevna
XOLID HUSAYNIYNING “MING QUYOSH SHU'LASI” ASARI TAHLILI..... 242-246

Elmuratova Zamira Xodjamuratovna
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich
QONUNIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUIJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

Umarova Xolisxon Nomoz qizi
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK
UCHUN JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

Аминова Наргиза
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ 270-277

Amirov Agzamxon Aktamovich
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

Kabilov Sardor Asrolovich
JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOY ASOSLARI	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

Received: 16 March 2026

Accepted: 01 April 2026

Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

ISSUES OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE CAPABILITIES IN THE INSTITUTION OF MEDIATION

Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna

Independent researcher at the law enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

E-mail: m.urunboyeva@gmail.com

Abstract. This article provides a scientific and practical analysis of the possibilities of using artificial intelligence technologies to improve the institution of mediation. The author highlights the essence and content of mediation, its history, legal nature, foreign experience, and the regulatory and legal framework for its application in the Republic of Uzbekistan. The article also analyzes the main problems encountered in the practice of mediation in our country, including the low level of public awareness, the shortage of qualified mediators, the weak financial sustainability of non-governmental mediation centers, insufficient coordination between courts and mediators, and barriers related to the psychological acceptance of mediation. The paper substantiates the use of modern solutions to address these problems, such as artificial intelligence-based interactive platforms, chatbots, online learning systems, virtual simulations, automated analysis and forecasting tools, and information exchange platforms. In conclusion, it is emphasized that the introduction of artificial intelligence technologies into the field of mediation can contribute to increasing the effectiveness of pre-trial dispute resolution, reducing the workload of courts, improving the quality of mediators' activities, and fostering a culture of reconciliation in society.

Keywords: mediation, artificial intelligence, alternative dispute resolution, mediator, ADR, chatbot, NLP, virtual simulation, legal technologies, pre-trial dispute resolution, legal culture, psychological acceptance, information platform, institution of mediation.

MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI

Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mediatsiya institutini takomillashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Muallif mediatsiyaning mazmun-mohiyati, tarixi, huquqiy tabiati, xorijiy tajribasi hamda O'zbekiston Respublikasida uning normativ-huquqiy asoslarini yoritgan. Shuningdek, mamlakatimizda mediatsiya instituti amaliyotida uchrayotgan asosiy muammolar, jumladan aholi o'rtasida xabardorlik darajasining pastligi, malakali mediatorlar yetishmasligi, nodavlat mediatsiya markazlarining moliyaviy barqarorligi sustligi, sudlar va mediatorlar o'rtasida koordinatsiyaning yetarli emasligi hamda mediatsiyaning psixologik qabul qilinishi bilan bog'liq to'siqlar tahlil qilingan. Maqolada mazkur muammolarni hal etishda sun'iy intellektga asoslangan interaktiv platformalar, chatbotlar, onlayn ta'lim tizimlari, virtual simulyatsiyalar, avtomatlashtirilgan tahlil va prognozlash vositalari, axborot almashinuv platformalari kabi zamonaviy yechimlardan foydalanish asoslab berilgan. Xulosa sifatida, sun'iy intellekt texnologiyalarini mediatsiya sohasiga joriy etish nizolarni sudgacha hal qilish samaradorligini oshirish, sudlar yuklamasini kamaytirish, mediatorlar faoliyati sifatini yaxshilash va jamiyatda murosaa madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: mediatsiya, sun'iy intellekt, nizolarni muqobil hal qilish, mediator, ADR, chatbot, NLP, virtual simulyatsiya, huquqiy texnologiyalar, sudgacha hal etish, huquqiy madaniyat, psixologik qabul qilish, axborot platformasi, mediatsiya instituti.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N44>

Kirish. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlanib borgan sari bunday munosabatlarning subyektlari – tomonlar o'rtasida turli-tuman: fuqarolik-huquqiy, oilaviy, biznes, ta'lim, ijtimoiy-mehnat munosabatlariga doir nizolar vujudga kelishi tabiiy holdir. Ayniqsa, bunday nizolar orasida oilaviy huquqiy munosabatlarga doir hamda mulkiy nizolar salmoqli o'rin egallaydi. Odatda, nizolashayotgan tomonlar masalaning yechimini topish maqsadida an'anaviy yo'lni tanlaydilar, ya'ni sudlarga murojaat qiladilar. Biroq, milliy huquq tizimimizda ishni sudgacha olib bormasdan, nizolarni boshqa muqobil yo'llar – apellyatsiya kengashlari, hakamlik sudlari va mediatsiya instituti yordamida ham hal etish imkoniyatlari mavjud.

Hozirgi kunda rivojlangan xorijiy davlatlar huquq tizimida nizoni sudgacha olib bormasdan, muqobil yo'l bilan hal qilishga qaratilgan **mediatsiya instituti** alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ustavining 33-moddasida vositachilik (mediatsiya) nizolarni hal etishning ustuvor vositasi sifatida tan olingan [1]. Shuningdek, Yevropa parlamenti va Kengashining 2008-yilda qabul qilingan 52-direktivasi fuqarolik va tijorat nizolarida "Mediatsiya" tushunchasiga "taraflar boshlab bergan yoki sud tomonidan tayinlangan yoxud milliy qonunchilik bilan belgilanganidan qat'i nazar, ikki yoki undan ortiq nizolashuvchi taraflarning nizoni hal etish to'g'risida kelishuvga erishish maqsadida uchinchi shaxsga murojaat etish jarayoni", deya ta'rif berilgan [2]. "Mediatorlar xulqining Yevropa kodeksi"da esa ushbu atamaga "ikki yoki undan ortiq tomon ushbu tomonlarga nizoni sud qarorisiz kelishuv tartibida hal etishga yordam berish uchun uchinchi tomon – vositachini jalb qilishga rozilik berish orqali o'tadigan istalgan jarayon", deya ta'rif berilgan [3].

Adabiyotlar tahlili. Mediatsiya ilk bor zamonaviy atama sifatida XX asrda shakllangan bo'lsada, uning ildizi qadimgi sivilizatsiyalarga borib taqaladi. Jumladan, qadimgi Xitoyda Konfutsiy ta'limotida "yarashtirish" ijtimoiy uyg'unlikning asosi sifatida talqin qilingan. Islom huquqida sulh va vosita institutlari mavjud bo'lib, ular mediator funksiyasini bajargan.

Avvalo mediatsiya tushunchasiga alohida to'xtaladigan bo'lsak, ushbu so'z lotin tilidagi "mediare" so'zidan olingan bo'lib, "vositachilik qilish, kelishtirish maqsadida aralashish" degan ma'nolarni anglatadi.

Mediatsiya – bu bir-birini tushunish va nizoli holatni bartaraf etuvchi bitim tuzishga erishish maqsadida xolis shaxs – mediator (vositachi) ishtirokida taraflarning erkin muzokaraga kirish yo'li bilan nizoni muqobil hal qilish usulidir.

Mediatsiyani qo'llash dastlab ilk marotaba Vavilon, Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rimda qayd etilgan. Rim huquqida "Yustinian kodeksi"dan boshlab (miloddan avvalgi VI asr) bahs-munozaralarni hal qilish uchun vositachilik tan olingan. Rimliklar bahs-munozaralarni hal qiluvchi mutaxassislarni "medium" – "vositachi" so'zi bilan ifodalashgan. "Medium"larga alohida hurmat bilan munosabatda bo'linib, ular ruhoniylar bilan bir qatarga qo'yilgan. Mediatsiya texnologiyasi asosan savdoda qo'llanilgan.

Markaziy Osiyo an'alarida oqsoqollarning, el orasida obro'ga ega yoshi ulug' insonlarning nizolashayotgan tomonlarni kelishtirish amaliyoti keng qo'llangan – bu mediatsiyaning tarixiy prototiplari hisoblanadi.

XX asrning ikkinchi yarmida AQShda "Alternative Dispute Resolution (ADR)" konsepsiyasi paydo bo'lib, keyinchalik Yevropa davlatlariga ham keng yoyilgan. Buning asosiy

sabablari – sud tizimi yuklamasining haddan ziyod ortib ketganligi, ishni sudda ko‘rish bilan bog‘liq iqtisodiy xarajatlarni kamaytirish zarurati, ijtimoiy nizolarning murakkablashuvi va boshqalar hisoblangan. Shundan so‘ng mediatsiya global miqyosda institutsional tus ola boshlagan.

Mediatsiyaning maqsadi – nizolashuvchi taraflarning nizolarini mustaqil, o‘zaro foydali shartlar asosida hal etish imkoniyatini topishga ko‘maklashishdan iborat bo‘lib, uning asosiy tamoyillariga ixtiyoriylik, taraflarning tengligi, betaraflik, mediatorning xolisligi, konfidensiallik (maxfiylik) kabilar kiradi. Mediatsiya jarayoni muzokaralardan iborat bo‘lib, uning muvaffaqiyati nafaqat taraflarning kelishmovchiliklarini hal etishga bo‘lgan irodasi va intilishiga, balki mediatorning tajribasi va mahoratiga ham bog‘liqdir. Umuman olganda, mediatsiya – bahs-munozaralarni uchinchi betaraf tomon ishtirokida tartibga solishga doir huquqiy texnologiya hisoblanadi.

Mediatsiyaga nisbatan jamiyatda vujudga kelgan ehtiyoj o‘tgan asrda yangi kasb – mediatorlik kasbining dunyoga kelishiga turtki bergan. Mediatorlar dalillarni tekshirmaydi va taraflarning talablari qonuniyligiga baho bermaydi, aksincha, ularning asosiy vazifasi – taraflar o‘rtasida bir-birlarini tushunishga, taraflar uchun maqbul shartlarda muammoni hal etish imkoniyatlarini izlash va hal etishga ko‘maklashishdan iboratdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, mediatsiya – majburiy kuchga ega bo‘lmagan, taraflarning ixtiyoriyligiga asoslangan konfidensial jarayon. U nizolashayotgan taraflarning ixtiyoriga ko‘ra tanlab olingan betaraf uchinchi shaxsning vositachiligida shartnomaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan nizoni o‘zaro murosa – yarashuv yo‘li bilan huquqiy asosda hal etish jarayoni bo‘lib, betaraf uchinchi shaxs mediator deb nomlanadi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi zamonaviy dunyoda mediatsiya instituti – ko‘plab davlatlar huquqiy jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Mediatsiyaning yanada rivojlanishi va dunyo bo‘ylab keng yoyilishiga, yuqorida ta’kidlanganidek, hozirgi Amerika modeli – “Alternative Dispute Resolution (ADR)” ulkan ta’sir ko‘rsatgan. Jahonning aksariyat davlatlarida mediatsiya instituti qonun bilan tartibga solingan bo‘lib, nizolarning asosiy qismi sudga murojaat etilmasdan, muzokaralar yo‘li bilan hal qilib kelinmoqda. Nizolashuvchi shaxslar mediatorni o‘zlari tanlaydilar va mediatsiya jarayoniga ixtiyoriy kirishadilar. Sudda tomonlar sudyani tanlay olmaydi, shuningdek, sudga faqat yashash joyi bo‘yicha murojaat qilish tartibi amal qiladi. Agar sudning vazifasi tomonlarning qaysi biri haq yoki aybdorligini aniqlashdan iborat bo‘lsa, mediatsiya tomonlarning kelishuviga erishishga hamda mediatorning yordami bilan nizoni hal qilishning turli xil yechimlarini muhokama qilishga qaratilgan. Sudda nizolashayotgan tomonlar sud qaroridan norozi bo‘lgan taqdirlarida ham uni bajarishga majbur bo‘lsalar, mediatsiyada barcha qarorlar faqat tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosida qabul qilinadi va ular ixtiyoriy ravishda uni bajarish majburiyatini oladilar.

Mediatsiya sud jarayoniga nisbatan maxfiy tarzda o‘tkaziladi va har bir tomon istagan vaqtida uni davom ettirishdan bosh tortishi mumkin, sudda esa aksincha, muzokaralarni istalgan vaqtda tugatib bo‘lmaydi, jarayon ham oshkora bo‘ladi.

Hech kimga sir emas, respublikada barcha sudlarning ish hajmi shu darajada yuqoriki, ishlarni ko‘rib chiqish bir necha oy va undan ortiq vaqtga cho‘zilib ketadi, mediatsiya jarayoni esa juda qisqa muddatda ham yakunlanishi mumkin. Mediatsiya sud jarayoniga qaraganda iqtisodiy jihatdan ham birmuncha tejamli bo‘ladi.

Mediator va sudyalarning o'rtasidagi farq tomonlarning da'volarini va ularning huquqlarini belgilovchi omillarni tahlil qilish uchun qo'llanilishi kerak bo'lgan muayyan standartlar yoki qoidalarning yo'qligidir. Mediatsiyaning yana bir afzalligi uning maxfiyligi, shuningdek vositachining tomonlarga o'zlariga mos keladigan har qanday yechimni ishlab chiqishda yordam berish huquqidir. Mediatsiya shartnomasi nizoli tomonlarning o'zaro roziligi bilan tuziladi. Nizoni shu tarzda hal qilish to'g'risidagi band nizoni muzokaralar jarayonida hal qilishning eng qulay va sodda variantidir.

Mediatsiyadan foydalangan holda muzokaralar nizo yuzaga kelgan bosqichda, shuningdek nizoli tomonlar nizolarni hal qilishning boshqa jarayonlariga, shu jumladan sud protseduralariga kirganda ham foydalanishlari mumkin. Faoliyat ko'rsatkichlariga ko'ra, nizolarni mediatsiya usuli bilan hal qilish nizoning barcha bosqichlarida muvaffaqiyatli bo'ladi. Intellektual mulk to'g'risidagi nizolarda vositachilik qilish, ayniqsa tomonlarning nizoni o'zi yoki nizoda ko'rsatilgan faktlarni yoki intellektual mulk huquqlarini sir saqlashi o'ta muhim bo'lgan taqdirda yanada dolzarb bo'ladi.

Bugungi kunda yurtimizda, asosan, mediatsiya, hakamlik sudlari va apellyatsiya kengashi sudgacha nizolarni hal qilish vositasi bo'lib bormoqda.

Mediatsiya instituti O'zbekiston Respublikasiga XXI asrdan boshlab kirib keldi. Milliy huquqiy tizimimizda mediatsiya instituti O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 iyulda qabul qilingan va 2019 yil 1 yanvardan kuchga kirgan O'RQ-482-son "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Ushbu Qonunning maqsadi asosan nizolarni tartibga solishning muqobil usullarini rivojlantirish uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratish, sud tizimiga tushadigan ish hajmini kamaytirishdan iborat.

Qonunning qabul qilinishi xalqimizning tarixan shakllangan, biroq hozirda anchayin unutilayotgan "murosai madora" degan qadriyati hamda an'analarni qayta jonlantirishi muqarrar. Nizolarni muqobil hal etish vositasi sifatida mediatsiya fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda, sudlar ishini yengillashtirishda va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda o'zining dolzarbligi va samaradorligini isbotlamoqda.

Bir nechta sabablarga ko'ra, hozir O'zbekiston uchun mediatsiya muhim. Negaki, so'nggi yillarda mamlakatimizda izchilikda katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Islohotlar, biznes muhitining yaxshilanishi, o'sib borayotgan iqtisodiyot va aholi sonining ortib borishi, bularning barchasi o'z navbatida nizolar sonining ortishiga olib keladi. Mediatsiya munosabatlarni buzishga emas, balki ularni saqlab qolishga qaratilgan bo'ladi. Bu, ayniqsa, kichik biznes uchun ayniqsa muhimdir, ya'ni, bu iqtisodiy jihatdan juda samarali: sudlar va ijro etuvchi idoralarga ortiqcha bosimning oldi olinadi, o'z navbatida, ularning ish samaradorligi ortadi, jarayonda ishtirok etuvchi biznes esa muammolarini tezda hal etadi va jarayonda uzilish bo'lmaydi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda respublikada mediatsiya orqali hal etilgan nizolar soni avvalgi yilga nisbatan 21 foizga oshgan, mediatorlar soni esa 4500 nafarga yetgan [4]. Bu O'zbekistonda mediatsiyaning amaliyotda sekin-astalik bilan bo'lsada, kengroq qo'llanilayotganidan dalolat beradi. Nizolarni sudga yetkazmasdan, tomonlar o'rtasida kelishuvga erishish – bu eng oqilona va insoniy yondashuv bo'lib, ijtimoiy barqarorlikning kafolatidir.

O'zbekistonda mediatorlarni tayyorlash dasturi bo'yicha maxsus o'quv kurslari mavjud bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2019-yil 31-yanvardagi 54-mh-son buyrug'i bilan "Mediatorlarni tayyorlash dasturi" tasdiqlangan [5]. Ushbu dastur O'zbekiston

Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni 12-moddasiga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi mediatorlarni tayyorlash, ularga muzokaralar olib borish texnologiyasi, stress holati va kelishmovchiliklarni boshqarish haqida tayanch bilimlar berish, nizolarni hal qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdir.

Mediatorning faoliyati professional yoki noprofessional asosda amalga oshirilishi mumkin.

Professional asosdagi mediator faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan mediatorlarni tayyorlash dasturi bo‘yicha maxsus o‘quv kursidan o‘tgan, shuningdek “Professional mediatorlar reyestri”ga kiritilgan shaxs amalga oshirishi mumkin.

Noprofessional asosdagi mediator faoliyatini 25 yoshga to‘lgan va mediator vazifalarini bajarishga rozilik bergan shaxs amalga oshirishi mumkin. Bunday shaxslar ham O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan mediatorlarni tayyorlash dasturi bo‘yicha maxsus o‘quv kursidan o‘tishi mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan “Professional mediatorlar reyestri” yuritiladi, ushbu reyestr ularning rasmiy veb-saytlarida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi. Shaxs mediatorlarni tayyorlash dasturi bo‘yicha maxsus o‘quv kursidan o‘tganidan so‘ng ushbu reyestrga kiritiladi.

Mediatorning faoliyati tadbirkorlik faoliyati hisoblanmaydi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda mediatsiya institutining amaliyotga joriy etilishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Respublikada bir qancha mediatorlar markazlari va tashkilotlari faoliyat yuritmoqda, mediatorlar ro‘yxati shakllantirilgan va ularning malakasini oshirish bo‘yicha muntazam seminar va treninglar tashkil etilmoqda. Biroq, **tizimda bir qator kamchiliklar hamda hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar** ham mavjud. Jumladan, aholi orasida xabardorlik darajasining pastligi, malakali mediatorlarning yetishmasligi, nodavlat mediatsiya markazlari moliyaviy barqarorlik darajasining pastligi, sudlar va mediatorlar o‘rtasida koordinatsiya to‘liq shakllanmaganligi hamda mediatsiya institutining psixologik qabul qilinishi sekin kechayotganligi shular jumlasidandir.

Fikrimizcha, O‘zbekistonda mediatsiya institutini amaliyotga keng tatbiq etishdagi muammolarni hal qilishda an’anaviy tashkiliy-huquqiy usullar bilan bir qatorda **sun’iy intellekt** imkoniyatlaridan ham keng foydalanish mumkin. Buni quyida mavjud muammolar kesimida ilmiy asosda tahlil etamiz.

Aholi orasida mediatsiya haqida xabardorlik darajasining pastligi. Aholi orasida mediatsiya instituti, uning ishlash tartibi hamda normativ-huquqiy asoslari haqida ma’lumotlarning yetarli darajada tarqatilmashligi, fuqarolar ushbu tizimning afzalliklari va zarurligi haqida kamdan-kam ma’lumotga ega ekanliklari ushbu institutning ommalashishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Sun’iy intellekt va ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish vositalari yordamida aholining mediatsiya instituti haqida xabardorlik darajasini oshirish mumkin. Masalan, sun’iy intellekt yordamida interaktiv onlayn platformalar yaratish, foydalanuvchilarga mediatsiya jarayonlari, uning afzalliklari va qanday ishlashini tushuntiruvchi videolar va maqolalar taqdim etish mumkin. Tabiiy tilni qayta ishlash (*Natural Language Processing – NLP*) texnologiyalarini

qoʻllagan holda, interaktiv chatbotlar orqali odamlarni mediatsiya tizimiga qiziqtirish va savollariga tezkor javob berish imkoniyatlarini yaratish mumkin.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda va mobil ilovalarda algoritmik tahlil orqali odamlarning qiziqishlariga mos ravishda mediatsiya bilan bogʻliq reklama va maʼlumotlarni targʻib qilishni avtomatlashtirish mumkin. Bu aholi orasida mediatsiya tizimi haqida qiziqishni kuchaytirib, ularning tizim haqidagi bilimlarini kengaytirishga yordam beradi.

Malakali mediatorlarning yetishmasligi. Oʻzbekistonda mediatorlar soni va ularning malakasi hali ham yetarli darajada emas. Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy saytidagi professional mediatorlar reyestriga nazar tashlaydigan boʻlsak, yuqorida taʼkidlaganimizdek, rasmiy ravishda roʻyxatdan oʻtgan professional mediatorlar soni respublika boʻyicha jami 4,5 ming nafardan ortiqroq boʻlib, tezlik bilan rivojlanayotgan, koʻp sonli aholiga ega mamlakatimiz uchun bu raqamlar albatta yetarli emas. Ushbu koʻrsatkich ham respublikada mediatsiya jarayoni samaradorligining yuksalishiga jiddiy toʻsiq boʻlib kelmoqda.

Fikrimizcha, sunʼiy intellekt yordamida mediatorlarni tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish imkoni mavjud. Masalan, professional va noprofessional mediatorlar uchun sunʼiy intellektga asoslangan onlayn taʼlim platformalarini yaratish, bunday platformalar ichida turli simulyatsiyalar va virtual mashgʻulotlar orqali mediatorlarning amaliy koʻnikmalarini oshirish mumkin. Virtual reallik (*Virtual Reality – VR*) va kengaytirilgan reallik (*Augmented Reality – AR*) texnologiyalari yordamida mediatorlar haqiqiy muhitda nizolarni qanday hal qilishni oʻrganadilar. Asosiysi, virtual muhitda xatolar “kechiriladi” va hech qanday oqibatlarini keltirib chiqarmaydi.

Shuningdek, onlayn reyestriga kiritish uchun sunʼiy intellekt yordamida professional mediatorlikka nomzodlar orasidan munosiblarini tanlash va baholash tizimini yaratish mumkin. Buning natijasida ushbu tizimda inson aralashuvi kamayishiga va shaffoflikka erishiladi. Tabiiy tilni qayta ishlash (*NLP*) tizimi yordamida mediatorlar tomonidan ishlab chiqilgan protokollarni va qarorlarni tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash va malakalarini yanada oshirish boʻyicha tavsiyalar berish mumkin.

Nodavlat mediatsiya markazlari moliyaviy barqarorligi darajasining pastligi. Nodavlat mediatsiya markazlari koʻpincha moliyaviy jihatdan qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa ularning xizmatlarini kengaytirishga va samarali faoliyat yuritishlariga toʻsqinlik qiladi. Bunday sharoitda kuchli amaliy ish tajribasiga ega professional mediatorlarning qoʻshimcha daromad manbalarini qidirishlari va boshqa faoliyat turiga “koʻchib oʻtishlari” holatlari koʻp kuzatiladi.

Sunʼiy intellekt va neyrotarmoq tahlillari yordamida mediatsiya markazlarining moliyaviy barqarorligini oshirish uchun avtomatlash-tirilgan moliyaviy tahlil va prognozlash tizimlarini yaratish orqali markazlarning moliyaviy barqarorligi darajasini yaxshilash va daromadlarni oshirish mumkin. Shuningdek, ayrim sodda mediativ jarayonlarni hamda hujjatlashtirish ishlarini avtomatlashtirish orqali xodimlar xizmat yuklamasini kamaytirish yoki ularning ish vaqtlari samaradorligini oshirishga erishish ham mumkin boʻladi. Qolaversa, sunʼiy intellekt yordamida mediatsiya markazlarining daromadlarini va xarajatlarini tahlil qilib borib, ularning moliyaviy barqarorligini yaxshilash uchun strategik tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati ham mavjud.

Bundan tashqari, sunʼiy intellekt yordamida donorlar va investorlardan mablagʻ jalb qilishni avtomatlashtirish, turli neyrotarmoq algoritmlari yordamida moliyaviy qoʻllab-

quvvatlovchilarni topish, mediatsiya markazlariga mos keladigan grantlar va boshqa mablag'lar haqida ma'lumotlar to'plash mumkin.

Sudlar va mediatorlar o'rtasida koordinatsiyaning yetishmasligi. Sudlar va mediatorlar o'rtasida samarali hamkorlikning yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani sud-huquq tizimi faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Avvalo, institutlararo koordinatsiyaning sustligi nizolarni muqobil hal etish mexanizmlarining to'laqonli ishlashiga to'sqinlik qiladi. Natijada, mediatorlar tomonidan erishilgan kelishuvlarning sudlar tomonidan tan olinishi, inobatga olinishi yoki ijro jarayoniga integratsiya qilinishi lozim darajada tizimlashtirilmaydi. Bu esa nizolarni hal etishning izchilligi, protsessual intizom va huquqiy aniqlik tamoyillariga ziyon yetkazadi.

Shuningdek, sud organlari va mediatsiya institutlari o'rtasida yagona axborot almashinuvi platformalarining yo'qligi yoki yetarlicha rivojlanmaganligi nizolar holati, jarayon bosqichlari hamda qarorlar ijrosini muvofiqlashtirishni qiyinlashtiradi. Bunday muvofiqlashtirishning sustligi tizim samaradorligini pasaytirib, ish yuritish muddatlarining cho'zilishiga, resurslarning samarasiz sarflanishiga va fuqarolarning sud-huquq tizimiga bo'lgan ishonchi susayishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, sudlar va mediatorlar o'rtasidagi institutsional va protsessual koordinatsiyaning yetarli darajada shakllanmagani mediatsiya jarayonining huquqiy tizimga chuqur integratsiyalashuvini sekinlashtiradi. Shu bois, mazkur yo'nalishda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, axborot tizimlarining uyg'unlashtirilgan holda joriy etilishi hamda o'zaro hamkorlikning aniq mexanizmlarini belgilash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Sun'iy intellekt tizimlari yordamida sudlar va mediatorlar o'rtasidagi aloqani yaxshilash, masalan, avtomatlashtirilgan muhokama platformalarini yaratish orqali mediatorlar va sudlar o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvini tezlashtirish mumkin. Tabiiy tilni qayta ishlash va neyrotarmoq o'rganishi yordamida mediatorlar tomonidan yuborilgan hujjatlar va qarorlar tahlil qilinib, sudlarga tegishli ma'lumotlarni tezda yetkazib berish, shuningdek, bunday hujjatlarning sud amaliyotiga va huquqiy pretsedentga qay darajada mutanosibligini baholash imkoniyatlari mavjud.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt yordamida sud va mediatorlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish, qarorlarni va jarayonlarni kuzatib borish, ular orasida samarali aloqalarni ta'minlash va kelgusida yanada takomillashtirish uchun tegishli tavsiyalar ishlab chiqish ham mumkin.

Mediatsiya institutining psixologik qabul qilinishi darajasi pastligi. Mediatsiya institutining psixologik qabul qilinishi darajasi pastligi ushbu tizimning amaliy samaradorligini sezilarli darajada cheklab qo'yimoqda. Avvalo, aholining nizolarni hal etishning muqobil mexanizmlariga nisbatan psixologik tayyorgarligi yetarli emasligi mediatsiyaga bo'lgan ishonchsizlikni kuchaytiradi. Jamiyatda an'anaviy sud jarayonini "adolatning yagona kafolati" sifatida qabul qilish holati saqlanib qolayotganligi mediatsiyaning teng huquqli va adolatli mexanizm sifatidagi ijtimoiy legitimatsiyasini susaytiradi. Natijada, mediatorning vositachilik roli, uning betarafliigi va jarayonning yuridik kuchga ega bo'lishi borasidagi bilimlar yetishmasligi turli shubha va stereotiplarga sabab bo'ladi.

Shuningdek, mediatsiyaning psixologik qabul qilinishi ijtimoiy ong va huquqiy madaniyat darajasi bilan ham chambarchas bog'liq. Huquqiy ongning nisbatan pastligi sharoitida tomonlar mojaroni konstruktiv muloqot orqali hal qilish qobiliyatiga kamroq ega

bo'ladilar, bu esa mediatsiya jarayonining mohiyati – ixtiyoriylik, o'zaro ishonch va murosaga tayyorlik tamoyillarini zaiflashtiradi. Aholi o'rtasida “murosa – zaiflik belgisi”, “kelishuv – da'vodan voz kechish” yoki “yon berish – aldanib qolish” kabi noto'g'ri psixologik tasavvurlarning mavjudligi mediatsiya institutining ommalashuviga to'sqinlik qiluvchi jiddiy omillardan biridir.

Natijada, mediatsiya institutining psixologik qabul qilinishi sust bo'lgani uchun ushbu tizimning amaliy natijalari to'liq namoyon bo'lmaydi, mojarolarni sudgacha bosqichda hal etish imkoniyatlari kengaymaydi va sudlar yuklamasini kamaytirishga qaratilgan islohotlarning samaradorligi pasayadi. Shu bois, **mediatsiya madaniyatini shakllantirish**, aholining psixologik tayyorgarligini oshirish, mediatorlar faoliyati ustidan ishonchni kuchaytiruvchi kommunikatsion strategiyalarni rivojlantirish hamda ijtimoiy ongda mediatsiya institutining qadr-qimmatini mustahkamlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Ishonch bilan aytish mumkinki, ushbu masalalar yuridik fanlar va sotsiologiya fanlari bo'yicha dissertatsiyalar darajasida tadqiq qilishga ham arziqli masalalardir.

Psixologik to'siqlarni yengish uchun sun'iy intellekt yordamida interaktiv platformalar va virtual terapevtlar yaratish, masalan, insonning psixologik holatini tahlil qilish va mediatsiya jarayoniga tayyorligini aniqlash uchun sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalanish mumkin. Bu yordamida mediatorlar mijozlar bilan samarali ishlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida mediatsiya jarayonining foydali ekanligini ko'rsatish uchun individual va guruh simulyatsiyalarini yaratish mumkin. Bu esa odamlarning mediatsiya tizimiga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekistonda mediatsiya institutining muvaffaqiyatli rivojlanishi va samarali ishlashi uchun sun'iy intellekt texnologiyalari keng imkoniyatlar yaratadi. Aholi orasidagi xabardorlikni oshirish, mediatorlarning malakasini rivojlantirish, nodavlat mediatsiya markazlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, sudlar va mediatorlar o'rtasidagi koordinatsiyani yaxshilash hamda mediatsiya tizimining psixologik qabul qilinishini o'zgartirish uchun sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish nafaqat mediatsiya institutining rivojlanishiga, balki butun ijtimoiy tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Qolaversa, nizolarni sudgacha hal qilish tizimida sun'iy intellekt imkoniyatlari bilan “qurollangan” mediatsiya jarayonini qo'llash natijasida sudlarda ishlar soni va xizmat yuklamasi kamayishiga, nizolar tez va kam xarajat bilan hal etilishiga, tomonlar o'zaro kelishuv asosida murosa qilishga intilishlari rag'batlantirilishiga, qisqacha qilib aytganda, O'zbekistonda mediatsiya institutining amaliyotdagi joriy holati sezilarli darajada takomillashishiga erishiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. United Nations Charter, Chapter VI: Pacific Settlement of Disputes// www.un.org/en/about-us/un-charter/chapter-6
2. Directive 2008/52/EC of the European Parliament and of the Council // <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32008L0052>
3. Yevropeyskiy kodeks povedeniya mediatorov www.norma.uz/raznoe/evropeyskiy_kodeks_povedeniya_mediatorov_izvlecheniya
4. www.adliya.uz/professional-mediatorlar-reyestri
5. www.lex.uz/ru/docs/-4185961

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).